



MAQOLA

O'ZBEKISTONDA REKLAMA RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti Amaliy grafika
kafedrası o'qituvchisi
Yusupova Nigora Vasikdjanovna*

ANNOTATSIYA: *O'zbekiston reklama taraqqiyoti tarixidagi muhim davr XIX asr oxiri va XX asr bo'lib, O'rta Osiyo mintaqasiga Rossiya kapitali va ishlab chiqarish mahsulotlarining jalb etilishi, Yevropacha madaniyatni kirib kelishi mahsulotni reklama qilishning yangi metodlari va turlarini shakllanishiga turtki bo'ldi. Turkiston o'lkasi hududida litografik bosmaxona, fotografiya atelelari, doimiy chop etilgan gazeta va jurnallar shu davrdagi tijorat va ijtimoiy reklamaning shakllanishi va joylarda faol tarqalishiga sabab bo'ldi.*

Maqola O'zbekiston reklamasi taraqqiyoti uchun eng ahamiyatli bo'lgan tarixiy davr – mamlakatning istiqlol yillari reklamasi xususiyatlarini shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini tavsiflash imkoniyatini beradi.

АННОТАЦИЯ: *Важным периодом в истории развития рекламы Узбекистана были конец 19-20 веков, привлечение в среднеазиатский регион российского капитала и продукции производства, внедрение европейской культуры стимулировали формирование новых методов и видов продукции. реклама. На территории Туркестана литографическая типография, фотоателье, постоянно издававшиеся газеты и журналы обусловили формирование и активное распространение в регионе коммерческой и социальной рекламы. Статья дает возможность описать особенности*



становления и тенденции развития рекламы в важнейший исторический период развития рекламы Узбекистана - годы независимости страны.

Kirish

Reklama tarixi yillar bilan emas, balki ming yilliklar bilan hisoblanadi. Tovar kabi iqtisodiy toifaning paydo bo'lishi va tovar ishlab chiqarishni tashkil etishidan boshlab, reklama san'at sifatida rivojlana boshladi. Reklamaning ommaviy san'atning alohida turi sifatida shakllanishi butun insoniyatning madaniy rivojlanishidagi dinamik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir.

Tashqi reklama haqli ravishda eng qadimgi reklama turlaridan biri hisoblanib uning tarixi, - yozuvning paydo bo'lishi va tarqalishi davridan boshlanadi. Reklamaning sodda ko'rinishlari eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Reklamalar dastlab og'zaki tarzda namoyon bo'lib, chaqiriq, baqiriq, jalb qilish ko'rinishida bo'lgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini yangi konseptual metodologiyalar asosida o'rganish, turli ilmiy muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan tarixiy-madaniy merosni o'rganish va targ'ib qilish, me'moriy yodgorliklarni restavratsiya va ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilishi bu boradagi katta ishlarni amalga oshirishga xizmat qildi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bir guruh tarixchilar bilan uchrashar ekan, "O'zbekiston tarixi" fanini yangi kontseptual metodologiyalar asosida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Olim-tarixchilarga davlat taraqqiyoti va barcha sohalardagi dolzarb vazifalarning kafolati sifatida qaraladi. Reklama tarixi ham mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan muhim soxa sifatida nazardan qolmadi.¹

¹ «Молодой учёный» . № 9 (113) . Май, 2016 г. Реклама в Туркестане: изучение процессов формирования и трансформации — актуальная проблема
Холикулова Шахноза Боймухаммадовна, преподаватель



Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixida reklama tarixiga oid ilk tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, tarix fanlari nomzodi, doktor S. B. Shadmanova o‘z tadqiqotlarida Turkiston davri matbuotida reklama paydo bo‘lgan va reklama qilinayotgan tovar va xizmatlar turli xarakterga ega degan xulosaga kelgan.

Asosiy qism

Yurtimiz xududida reklamaning ilk tarixiy shakllari nixoyatda soda ko‘rinishlarda bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li savdo shaharlarining markazida joylashgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Termiz, Farg‘ona, bozorlarida qadimgi davr va o‘rta asrlarda tadbirkorlar o‘z mahsulotlarini sodda usullarda reklama qilganlar.

Antik davr yozma manbaalarida Qadimgi Xorazm, Kushon Baqtriyasi, Sug‘diyona kabi ilk davlatlarda xunarmandchilikning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu esa mazkur hududlarda savdo-sotiq sohasining keng ko‘lamda bo‘lganligidan darak beradi. So‘g‘dlar ishlab chiqargan mahsulotlar Buyuk Ipak yo‘lining turli yo‘nalishlari bo‘ylab tarqalgan.

Hunarmandlar mahsuloti yoki me’mor qurgan haqidagi yozma ma’lumotlar, uzoq davrlardan reklama tushunchasini shakllanishi va u mahsulotning halqaro bozorga chiqishida etakchi vosita bo‘lganligidan dalolat beradi.

VII-VIII asrlada O‘rta Osiyoning yagona musulmon dunyosiga kirishi, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarining O‘rta va Yaqin Sharqqa eksport qilinishi tadbirkorlikning etakchi omili bo‘lgan reklamaning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bozor va karvonsaroylarda maxsus dallollar – “jarchilar”



paydo bo'la boshladi. Jarchilar tarqatgan ma'lumotlar turli mazmunga ega bo'lib, asosan, siyosiy chaqiruvlar va tijorat reklamalaridan tashkil topgan. Jarchilar shaharlarga savdo karvonlari etib kelguniga qadar bozorlarda, savdo rastalarida, karvonsaroylarda reklama ma'lumotlarini tarqatishgan, aholidan buyurtmalar ham qabul qilishgan.

Reklamaning mamlakatimiz tarixidagi rivojlanishning e'tiborli jihatlaridan yana biri – Markaziy Osiyoning mahalliy mahsulotlarini reklama qilishda arab sayyohlarining ahamiyatli o'rnidir. Ular VII-IX asrlardan boshlab bizning hududimizni ziyorat qila boshlaganlar. Sayyohlar yozma ma'lumotlarida shaharlar, bozorlar, shuningdek, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlariga yuqori baho berganlar. Mazkur yozma ma'lumotlar reklamaning o'ziga xos shaklini yuzaga keltirgan. Shu jihatdan arab sayyohi al-Maqdisiyning Shosh sirlangan kulolchiligi haqida yozgan ma'lumoti e'tiborga molik. Uning fikriga ko'ra, "Mazkur hunarmandchilik mahsulotlaridan eng boy honadonlarda foydalanilgan". Shuningdek, arab sayyohi Yoqut Xorazm haqida o'z kundaligida quydagicha yozadi: "Men u yerda 618 yilda bo'lganman va o'sha vaqtgacha hech bir erda bu qadar go'zal joyni uchratmaganman... Xorazmning katta qismi bozor rastalarga ega shaharlardan tashkil topgan". Ushbu ma'lumotlar reklama mohiyatiga ega.

XIV-XV asrlarda siyosiy maydonda Buyuk Amir Temur va uning izdoshlaining paydo bo'lishi natijasida asosiy intilisha savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatga ega markazlashgan davlat qurishga qaratildi. Ushbu siyosat natijasida O'rta va Yaqin Sharqdan ko'plab usta va hunarmandlar temuriylar imperiyasi poytaxtiga jalb etilgan.

Mazkur davrda usta hunarmandlar mahoratini ko'rsatuvchi, ularning nomini mashhur qilgan mahsulotlarni yaratish yangicha rusumga kirdi. Ya'ni, yaratilgan mahsulot yuzasiga bajarilgan sana, byurtmachi va asar muallifi haqida malumotlar yozib qo'yildi. Bu esa aynan temuriylar davrida ham reklamaining o'rnini bo'lganligidan dalolat beradi. Mahobatli hajmi, shakli va ajoyib bezaklari bilan



mashhur bo'lgan temuriylar davriga oid quyma qozon bunga misoldir. Uning yuzasiga “suls” va “qufi” yozuvlari bitilgan. Amir Temur buyurtmasi asosida, shayx Ahmad al-Yassaviy xazratlari maqbarasi uchun, 1399 yil 25 iyun, hunarmand Abd-al-Aziz tomonidan yaratilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Amaliy san'at asrlarida keltirilgan ma'lumotlar hunarmand faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, tijorat reklamasini yuzaga kelishiga asos yaratgan.

Mazkur davrning ijtimoiy reklamasining klassik namunasi sifatida Amir Temurning Shahrisabzdagi Oq saroy peshtoqiga bitilgan quyidagi so'zlari misol bo'la oladi: “Agar bizning kuch- qudratimizdan shubhalansangizbiz, qurdirgan imoratlarga boqing”.

Musulmon me'morchiligida QUR'ON oyatlaridan mahobatli epigrafik yozuvlarni qo'llanilishi o'ziga xos mafkuraviy reklama shakli hisoblanib, odamlar ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazish uchun mahalliy me'morchilikda ulardam keng foydalanilgan.

O'zbek xonliklari davriga kelib hududlar iqtisodiyotining o'sishi birmuncha pasaydi. Natijada XVI-XVII asrlarga kelib halqaro savdo-sotiq aloqalari kamaydi. Bu holat tabiiy ravishda Mavarounnahrning reklama ishiga ta'sir ko'rsatdi. Mazkur davrga oid yozma manbaalarda ushbu jarayon o'z aksini topgan va shunga ko'ra tijorat va ijtimoiy reklama ko'lami faqat hudud ichidagina mavjud bo'lib qolgan.

Shubhasiz, O'zbekiston mahalliy reklamasining taraqqiyot bosqichlari hududda sodir bo'lgan tarihiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini bosib olinishi natijasida Markaziy Osiyo xududida “yevropalashish” jarayoni kuzatildi. O'lkani Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi, uni yangi kapitalistik munosabatlar orbitasiga qo'shilishi jamiyatning an'anaviy hayot tarzi, madaniyat va san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu hol, asosan, shaharning evropalashgan hududida yaqqol aks etdi. Shaharning ushbu hududida yangi



ko‘rinishdagi binolar qad ko‘tardi, jamoat transport vositalari , tipografiya va fotoatelyelar barpo etildi. Yaratilgan barcha yangiliklar o‘zida XIX asr oxiri - XX asr boshi rus madaniyati stilistikasini namoyon etdi . Ushbu holat ilk reklama viveskalari va bosma nashrlarda ham o‘z aksini topdi.

O‘rta Osiyo mintaqasiga Rossiya kapitali va ishlab chiqarish mahsulotlarining jalb etilishi, evropacha madaniyatni musulmonlar orasiga kirib kelishi, mahsulotlarni reklama qilishning yangi metodlari va turlarini shakllanishiga turtki bo‘ldi. XIX asr oxiri xududda litografik bosmaxona, fotografiya atelyelari, doimiy chop etilgan gazeta va jurnallar shu davrdagi tijorat va ijtimoiy reklamaning shakllanishi va joylarda faol tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Reklama san’atining uzoq o‘tmishdagi og‘zaki shaklidan yozma shaklga kelishi ham aynan ko‘rilayotgan davrga to‘g‘ri keladi. XIX asrda o‘lkada litografik bosmaxona, fotografiya atelyelari, doimiy chop etilgan gazeta va jurnallar shu davrdagi tijorat va ijtimoiy reklamaning shakllanishi va joylarda faol tarqalishiga sabab bo‘ldi. XX asr gazeta va jurnallari, foto va kino arxivlarida bir qancha reklama namunalari saqlanib qolgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkiston o‘lkasida iste’mol mollarining bosma reklamalari turli xil gazetalarda muntazam chop etilgan.

Turkistonda ilk bosma reklamalar XIX asrning 70-yillarida paydo bo‘lgan. Turkiston general-gubernatorligining rasmiy organi – viloyatning birinchi gazetasi “Turkestanskiye vedomosti” sahifalarida.² Xuddi shu davrda 1870–1883 yillarda Turkistonda birinchi bo‘lib chiqqan “Turkiston viloyatining gazetasi” davriy nashri sahifalarida reklama joylashtirila boshlandi. “Turkestanskiye vedomosti” gazetasiga ilova sifatida oyiga 2-4 marta o‘zbek tilida va 2 marta qirg‘iz (qozoq) tillarida 500 nusxada chop etiladi. 1872—1883-yillarda gazeta muharriri sifatida Turkiston general-gubernatori tarjimoni Shoximardon Ibrohimov, 1883-yilda Muhammadhasan Chanishev, 1883-yil oxiridan 1917-yil fevraligacha



N.P.Ostroumovlar ishladilar. 1883 yil 30 yanvarda “Turkiston viloyatining gazetasi” mustaqil gazeta sifatida chiqa boshladi. 1885-1901 yillarda gazetaning bir sahifasi rus tilidagi nashrlarga bag‘ishlangan. Gazeta nafaqat Turkistonda, balki Rossiyaning boshqa viloyatlarida, xususan, Xelsingfors, Qozon, Qashqar, Baxchisaroy, Moskva, Omsk, Sankt-Peterburgda ham o‘z o‘quvchilariga ega edi.

“Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalaridagi reklamalar orqali kitobxonlar, asosan, texnologiya olamidagi ilmiy kashfiyotlar, yangiliklar bilan yaqindan tanishdilar. Gazetaning birinchi va oxirgi sahifalarida reklamalar joylashtirildi. O‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun imkon qadar chiroyli ishlab chiqilgan va uzoq vaqt davomida ma’lum mahsulotlar reklamasida illyustratsiyalar ishlatilgan, bu esa reklama qilingan mahsulotga qiziqish uyg‘otgan.

XIX asrning 90-yillari oxiridan boshlab viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida noodatiy hodisa bo‘lgan mazkur gazeta sahifalarida yangi texnika va texnologiyalar keng targ‘ib qilindi. Xususan, reklamaga haqiqiy qiziqishi uyg‘ongan tikuv mashinalari, pechat mashinalari, velosipedlar, o‘tgan zamon taksilari gazeta sahifalarida paydo bo‘ldi. Masalan, “Turkiston viloyatining gazetasi”ning 1905 yil 25-sonida Toshkentdagi do‘konda inglizlarning “Filit” zavodining velosipedi (mahalliy aholining tilida “shaytan arbu”) sotilishi haqidagi e’lon bor edi, aravacha, Qozondagi zavod tomonidan ishlab chiqarilganligi va katalogdan tanlash mumkunligi haqida ma’lumotlar keltirilgan edi.

Gazeta materiallari tahlillarida ko‘rinib turibdiki, gazetada mahsulot va uni nafaqat Turkiston general-gubernatorligi hududida, balki telegraf orqali boshqa shaharlarda ham olish imkoniyati haqida ma’lumotlar berilgan. Masalan, ana shunday e’lonlardan birida Bokudagi ombordan xarid qilish mumkin bo‘lgan *o‘simliklarni sug‘orish uchun nasos* haqida ma’lumot berildi va ombor manzili va uning telegraf manzili ko‘rsatilgan edi.

Reklama gazeta o‘quvchilarda hayotiy ma’lumotlarni berganligi sababli katta qiziqish uyg‘otdi. Masalan, Turkistonning iqtisodiy hayotida qishloq xo‘jaligi



katta o‘rin egallaganligi va sug‘orish uskunalariga ehtiyoj katta bo‘lganidan kelib chiqib, gazetada suv nasosli dvigatellar haqida e‘lon joylashtirilib, unda mahsulotning afzalliklari sanab o‘tilgan va bu boradagi ishlarga alohida urg‘u berilgan. Bunday dvigatellar katta miqdordagi suvni ishlab chiqarishi mumkin, kerosinda ham, shamol va suv yordamida ham ishlaydi. Ularni narxlari bilan ko‘rsatilgan va katalog bo‘yicha tanlash taklifi berilgan edi.



Ma'lumki XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida gazeta reklamasi o'z vaqtida bo'lganligi e'tiborni jalb qiladi.

O'sha davrlarda Turkiston bozorlariga dunyoning mashhur kompaniya va tashkilotlari kirib kela boshlagan, ular o'z mahsulotlarini reklama qila boshlagan. Ular orasida "Singer" kompaniyasi ham bo'lib, uning reklamalarida ularning tovarlarini nafaqat Toshkent, balki o'lkaning boshqa shaharlarida ham xarid qilish mumkinligi qayd etilgan. "Turkiston viloyati gazetasi" sahifalarida toshkentlik tadbirkor Samijon Mullo Zafar o'g'li Azizboyev mazkur kompaniya tikuv moshinalarini tashkilotning hududiy bo'limlaridan xarid qilish mumkinligi haqida xabar beradi.

Keyinchalik Turkiston o'lkasining shaharlarida o'tkaziladigan tadbirlar haqida ma'lumot beruvchi afishali maxsus qutilar va oshxona, choyxona,



karvonsaroy, do'kon, atelyelarda aholiga taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlarning turlari keltirilgan ko'rgazmalar paydo bo'la boshladi. Reklama san'atining rivojlanishi, asosan, Turkiston general gubernatorligining markaziga aylangan Toshkentda kuzatildi. Bu davrlarda o'lkaga Rossiya kapitali oqib kelishi munosabati bilan tashqi tijorat reklamasi keng rivojlandi.

1917 yil Oktyabr inqilobidan so'ng reklamaning tarkibi va vazifasi o'zgardi. Endilikda reklama sovet hukumati tomonidan davlat tasarrufiga o'tkazildi. Tadbirkorlar reklama evaziga o'z faoliyatlarini kengaytirish imkoniyatidan mahrum bo'ldilar.

1920 yillardan Turkistonda tijorat va ijtimoiy reklamalar nisbati tubdan o'zgardi. Endilikda ijtimoiy reklamalar ko'proq qo'llanila boshladi. Rejali, markazlashtirilgan iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni mafkuralashtirilishi, O'zbekistonda ijtimoiy reklama rivojlanishining asosiy omili bo'lib qoldi. Bu hol Respublikaning mustaqillikka erishguniga qadar davom etdi.

XX asrning 60-70 yillarida hududlarda maxsus reklama tashkilotlari yuzaga keldi. Bularga sobiq SSSR savdo-sotiq vazirligining "Soyuztorgreklama", SSSR Sentrosoyuzi qoshidagi «Glavko-optorgreklama» tashkiloti va boshqa ishlab chiqarish sohasidagi tijorat-reklama tashkilotlari (boshqa vazirliklar qoshidagi) kiradi. Ularning asosiy vazifasi butun sovet ittifoqida reklama ishini tashkillashtirish, nazorat qilish va maxsus yarmarkalar o'tkazishni amalga oshirishdan iborat edi.

Xulosa

Reklama rivojlanish tarixi insoniyat jamiyati rivojlanishi va uning iqtisodiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda zamonaviy tashqi reklamasini ijtimoiy-madaniy funksiyalarini aniqlash hamda uning badiiy-estetik jihatlarini



tasviriy san'at kesimida rivojlanishi va taraqqiyot tamoyillarini belgilashdan iborat. XXI-asrni reklama sanoatining gullab-yashnashi bilan tavsiflash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning barchasi reklamaning tarixda qanday ko'rinishlarda mavjud bo'lganligi, yurtimizning siyosiy va ijtimoiy hayotida tutgan o'rnini belgilab, uning shahar muhitida qo'llanilishida ham g'oyaviy, ham estetik jihatdan muhim ahamiyat kasb etganligini yana bir bor isbotlaydi.

Reklama inson hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, iste'molchilar bilan bevosita va bilvosita aloqaga kirishadi, bu esa barcha qadriyatlar – axloqiy, estetik, diniy tushunchalarni o'zgartiradi yoki yangicha qarashlarni shakllantiradi. Albatta, reklama qilinayotgan mahsulot iste'molchiga kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlar haqida ma'lumot berishi, sof madaniyatni keng yoyishi, qoloq davlatlarda turmush tarzini o'zgartirishi, axloqiy munosabatlarni targ'ib qilishi foydali. Bular millatlararo aloqalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Lekin, mentalitetimizga qarshi, milliy qadriyatlarimiz o'rnini egallamoqchi bo'lgan ommaviy madaniyatni keng targ'ibot qilishi zarardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Панкратов Ф.Г., Баженов Ю.К., Сергина Ю.К., Шахурин В.Г. *Рекламная деятельность*. - М., 2000. С. 19
2. Феофанов О.А. США: реклама и общество. - М., 1974. С. 50
3. Джон Р., Росситер, Лари Перси. Реклама и продвижение товаров. 2-е изд. - СПб., Питер, 2000
4. В.В. Inatullayev "Ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasida reklama" ma'ruza matni -N. 2014
5. G.Karimova, X.Kamilova "Reklama va dizayn" -T.: O'zbekiston, 2012.
6. N.T. Haydarova. "O'zbekiston animatsion filmlari" -T.: Turon Iqbol, 2019.
7. "Юный Учёный" KNIGA



8. Shavkat MIRZIYOEV “ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK O‘ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ”
9. Mrziyoyev.Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. O‘zbekiston, 2016-56
10. A.B.Akilova “Reklama asoslari”
11. B.B. Inatullayev “Ijtimoiy-madaniy faoliyat sohasida reklama” ma’ruza matni -N. 2014
12. Aziza Abbasovna Ibrokhimova. TDSHU
13. Rashidova M. Reklama faoliyati uslubiyoti-Toshkent.2010

FOYDALANILGAN SAYTLAR RO‘YHATI

1. www.ziyouz.com kutubxonasi. Sakina Muhamedjanova. O‘zbekiston reklama san’ati tarixidan.
2. <https://uz.wikipedia.org>.
3. www.google.com
4. <https://shosh.uz/reklama-na-stranitsah-periodicheskoy-pechati-turkestana-v-kontse-xix-nachale-xx-veka-na-primere-turkiston-viloyatining-gazeti/>